



NAVOIY VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATIDA  
MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI  
FAOLIYATI  
2022- yilda



# NAVOIY VILOYATIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARI FAOLIYATI

**Madaniyat** - inson faoliyati va uning ahamiyatini belgilovchi ramziy vositalar va asarlar yig'indisidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin. Antropologiyada «madaniyat» atamasi mahsulot va ularning ishlab chiqarilishi, estetik qiymati va shu jarayonlar bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni bildiradi. Bu jihatdan madaniyat san'at, fan va manaviy tizimlarni o'z ichiga oladi.

**Madaniyat** - jamiyat, shaxsning ijodiy kuchlari va qobiliyatları tarixiy rivojlanishining ma'lum darajasi. U kishilar hayoti va faoliyatining turli jabhalarida, ular yaratayotgan moddiy va ma'naviy ne'matlarda namoyon bo'ladi.

San'at ijtimoiy ong va inson faoliyatining o'ziga xos shaklidir. San'at qadimiy tarixga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida inson faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'la boshlagan.

San'at odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida jamiyat a'zolarini ma'lum bir ruhda tarbiyalash, ularning aqliy va hissiy rivojlanishi, shaxsning turli maqsadlari, his-tuyg'ulari, qiziqishlari va ideallarini ifodalash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Estetik tafakkur tarixida san'at go'zallik qonuniyatları asosida qandaydir tarzda narsa va hodisalarni aks ettirish va hayotni badiiy tarzda ifodalash g'oyasiga aylangan.


**Teatr san'ati** azaldan insoniyatning ma'naviy hayotida o'z o'rnnini egallagan. Ming yillar avval qadimgi Hindiston, Qadimgi Xitoy va Qadimgi Yunonistonda teatr dastlab bir, keyin ikki bosqichdan iborat bo'lib, shundan keyingina jamoaviy san'at turiga aylangan. Boshqacha aytganda, spektakl jamoaviy ijod mahsuli bo'lsa, rejissyor, dramaturg, aktyor, rassomning ijodiy izlanishlari samarasi bo'lsa, aktyorlarning bugungi ishi boshqacha. Demak, sahna san'atkorning muttasil ijodkorligini ko'rsatadi, aktyor zamonaviy san'atga uning ruhi, ijodiy kayfiyati bilan bog'liq nimadir qo'shadi yoki olib tashlaydi.

## MUZEYLAR

Navoiy viloyatida 2022- yilda jami muzeylar soni 5 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 3 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 30 761 kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 55,3 % tashkil etgan. Muzeylarda 92 ta ma'ruzalar o'qilgan. Muzeylar tomonidan jami 50 ta ko'rgazmalar, 2 067 ta ekskursiyalar tashkil qilingan.



Muzeylar soni, birlik



2022- yilda muzeylar faoliyati, birlik

50 ta ko'rgazmalar

92 ta ma'ruzalar

2 067 ta ekskursiyalar

Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni, kishi

2022- y.

30 761

Jami tashrif buyuruvchilar

16 998

ulardan o'quvchi va talabalar soni

2021- y.

28 101


Jami tashrif buyuruvchilar

19 429

ulardan o'quvchi va talabalar soni

Bugungi kunda viloyatimiz muzeylarida turli xildagi buyumlar va eksponatlari mavjud bo'lib, 2022-yilda muzeylardagi jami asosiy fond eksponatlari soni 25 921 tani tashkil etgan. Muzey eksponatlaringin 178 tasi rassomlik, 43 tasi grafika, 32 tasi haykaltaroshlik, 1 414 tasi amaliy san'at, 9 135 tasi numizmatika, 1 364 tasi arxeologiya buyumlari, 2 906 tasi maishiy va etnografik buyumlari, 3 727 tasi suratlar, 1 219 tasi hujjatlar, 5 903 tasi boshqa eksponatlardan iborat.

**2022- yilda asosiy fond eksponatlari soni, birlik**



## TEATRLAR

2022- yilda viloyatimizda teatrlar soni 1 tani tashkil etdi. Unda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) esa, 11 tadan iborat. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 3,5 ming nafarni tashkil etgan.

### 2022- yilda teatr faoliyati



	2022- y.
Teatrlar soni, <i>birlik</i>	1
Spektakllar (tomoshalar) soni, <i>birlik</i>	11
Teatrga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni, <i>ming kishi</i>	3,5

#### Teatr janri, *birlik*



spektakllar

11 ta

1  
qo'g'irchoq teatr  
11  
spektakllar

3,5 ming kishi

tomoshabinlar

## KONSERT TASHKILOTLARI

2022- yilda jami faoliyat ko'rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 2 ta bo'lib, ular tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 135 tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami 130,0 ming nafarga teng bo'lgan.

### Konsert tashkilotlari faoliyati

	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Konsert tashkilotlari soni, <i>birlik</i>	2	2	2	2	2
Konsertlar soni, <i>birlik</i>	207	143	41	216	135
Xizmat ko'rsatilgan tinglovchilar, <i>ming kishi</i>	106,4	56,5	17,1	72,1	130,0

### 2022- yilda faoliyat turlari bo'yicha konsert tashkilotlari, *birlik*



2022- yilda konsert tashkilotlarining faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganida, gastrol-konsert tashkilotlari – 1 tani hamda filarmoniya – 1 tani tashkil etgan.

## MADANIYAT VA ISTIROHAT BOG'LARI

2022- yilda viloyatimizda jami 9 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud bo'lib, ularning umumiy maydoni 80,2 gektardan iborat. Madaniyat va istirohat bog'larida dam olish ob'ektlari soni 49 ta, jami attraksionlar soni 84 tani tashkil etgan. Madaniyat va istirohat bog'lariga jami tashrif buyurganlar soni 300,9 ming kishini tashkil etgan.

### Madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati

	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Madaniyat va istirohat bog'lari soni, <i>birlik</i>	10	10	9	9	9
Dam olish ob'ektlari soni, <i>birlik</i>	48	50	49	49	49
Attraksionlar soni, <i>birlik</i>	95	94	94	94	84



istirohat bog'lari umumiy  
maydoni, ga

80,2

300,9

qatnovlar, ming kishi

## MADANIYAT MARKAZLARI

Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, mavzuli va adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

### Madaniyat markazlari faoliyati

	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Madaniyat markazlari soni, <i>birlik</i>	32	32	32	32	32
Jami o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, <i>birlik</i>	2 843	3 325	1 035	2 049	2 741
Madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etganlar, <i>ming kishi</i>	875,7	982,1	253,3	734,4	1 119,0

Madaniyat markazlarida jami 2 741 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 1 223 ta ommaviy, madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari, 712 ta mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 279 ta teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 527 ta konsertlar ulushiga to'g'ri keladi. O'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tashrif buyurganlarning umumiy soni 1 119,0 ming kishini tashkil etgan.



## Statistik ko'rsatkichlarga izoh

**Madaniyat** – inson faoliyati va shu faoliyatning ahamiyatini belgilovchi ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat musiqa, adabiyot, san'at, me'morchilik, teatr, kino va turmush tarzi kabi faoliatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

**Madaniy meros** bu – xalqning yoki jamoaning moddiy va nomoddiy merosidir, uni saqlab qolish va keyingi avlodlarga yetkazish uchun vasiyat qilingan. Bunga e'tiqodlar, bilimlar, badiiy ifodalar, me'yorlar va qadriyatlar, ijtimoiy amaliyotlar, urf-odatlar va urf-odatlar, joylar, obyektlar va madaniyathning har qanday boshqa ifodalari kiradi.

**Madaniy meros obyektlari** – moddiy va nomoddiy madaniy meros obyektlari.

**Moddiy madaniy meros obyektlari** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan ansamblilar, diqqatga sazovor joylar va yodgorliklar.

**Nomoddiy madaniy meros obyektlari** – tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha san'ati), shuningdek ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlar.

**Diqqatga sazovor joylar** – inson va tabiat ijodining mushtarak mahsuli, shuningdek tarixiy, arxeologik, shaharsozlik, estetik, etnologik yoki antropologik qimmatga ega bo'lgan hududlar, shu jumladan xalq hunarmandchiligi maskanlari, tarixiy manzilgohlar yoki shaharsozlik tarixiy markazlari va tarixiy (shu jumladan harbiy) voqealar, yodgorliklar, atoqli tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan imoratlar, xotira joylari, tabiiy landshaftlar, shuningdek, ko'hna shaharlar, shahristonlar, manzilgohlar, qarorgohlar imoratlarining madaniy qatlamlari, qoldiqlari, marosimlar bajo etiladigan joylar.



## Press-relizni tayyorlash uchun mas'ul: Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi



Navoiy viloyati  
statistika boshqarmasi



Manzil: Navoiy sh.,  
Amir Temur ko'chasi, 4-uy

tel.: +99879 223-54-98



e-mail: nv@navstat.uz



[www.navstat.uz](http://www.navstat.uz)



[facebook.com/navstatistika](https://facebook.com/navstatistika)